

**Maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini  
o'rgatishda qiziqarli o'yinlarning ahamiyati**

**Xamrokulova Mehrubon G'olibovna**

*Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqola bolalarga ingliz tilini o'rgatishda o'yinlardan foydalanishning afzaligi va foydaliligiga bag'ishlanadi. Maqolada xorijiy til, ya'ni ingliz tilini o'rgatishda o'yinlarning roliga asoslanadi. Darslarni oddiy usullarda zerikarli qilib emas balki turli xil o'yinlar, materiallar, buyumlar, rasmlar, o'yinchoqlar, suhbat qismi va boshqa rekvizitorlarni qulay saqlash va osongina olishni talab qiladi. Maqolada ingliz tili darslarida foydalanish mumkin bo'lgan bir nechta o'yinlar keltirilgan. Ingliz tili darslarida ushbu interfaol metodlardan foydalanish til o'rganishni yanada foydali, ma'zmunli va qiziqarli qiladi. Dars jarayonida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan faol o'yinlardan foydalanish darsda qo'yilgan maqsadga erishishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Avlod, til ko'nikmalar, o'zaro ta'sir, yangi yondashuvlar.

**Abstract:** This article is devoted to the advantages and benefits of using games in teaching English to children. The article focuses on the role of games in teaching a foreign language, that is, English. Instead of making lessons boring in simple ways, it requires convenient storage and easy access to various games, materials, objects, pictures, toys, conversation pieces, and other props. The article presents several games that can be used in English lessons. The use of these interactive methods in English lessons makes language learning more useful, meaningful and interesting. During the lesson, the use of active games aimed at developing students' thinking helps to achieve the goal set in the lesson.

**Key words:** Generation, language skills, interact, new approaches.

Hozirgi kunda ingliz tili tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish oson emas, chunki ingliz tili ularning ona tili

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

emas va bu ular uchun yangi narsa. O'qituvchi ingliz tilini o'rgatish uchun yaxshi va qiziqarli texnikaga ega bo'lishi kerak, shunda yosh o'quvchilar ingliz tilini o'rganishga qiziqadilar . Yosh o'quvchilarga ingliz tilini tanishtirishning ko'plab usullari mavjud.

Ulardan biri o'yinlardan foydalanishdir. Ersoz (2000) o'yinlar barcha til ko'nikmalarini mashq qilish uchun foydalanilishi va ular ko'plab muloqot turlarini mashq qilish uchun ham ishlataladi [2;1]. Yosh o'quvchilar o'ynashni yaxshi ko'radilar va ular o'yinga sinfdagi boshqa vazifalarga qaraganda ko'proq ishtiyoq va xohish bilan qatnashadilar. Shunga qaramay, ba'zida o'yinlar bolalar haqiqatan ham o'rganmaydigan ko'ngilochar faoliyat sifatida qabul qilinadi. Umuman olganda, bolalar faol bo'lganda yaxshiroq o'rganishadi.

Sinfda o'yinlardan foydalanish juda ko'p afzalliklarga ega. O'yinlar har qanday o'quv dasturining muhim qismi bo'lishi kerak. Carrier (1980) ga ko'ra, "O'yinlar talabalarning uzoqda bo'lган motivatsiyasini shunday oshiradiki, o'quvchilar o'rganishdan shunchalik zavqlanadilarki, ular buni qilayotganlarini sezmasliklari mumkin" [3;1]

O'yinlar qiziqarli va bolalar ularni o'ynashni yaxshi ko'radilar , o'yinlar orqali bolalar tajriba o'tkazadilar, kashf etadilar va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatda bo'lishadi, o'yinlar darsga o'zgaruvchanlik qo'shadi va maqsadli tildan foydalanish uchun asosli rag'batlantirish orqali motivatsiyani oshiradi. Dars jarayonida o'yinlardan foydalanishning son-sanoqsiz afzalliklari mavjud.

O'yinlarnig foydali tomonlari:

- O'quvchilarga o'zлари haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam berish.
- Barcha o'quvchilar o'з fikrini bildirish jarayonida o'zini erkin his qila bilishi.
- Sinfda hamjamiyatlilik tuyg'usini uyg'otish.

Yosh o'quvchilar o'ynashni yaxshi ko'radilar va ular o'yinda boshqa sinfdagi vazifalarga qaraganda ko'proq ishtiyoq va xohish bilan qatnashadilar. Shunga qaramay, ba'zi o'yinlar bolalarning o'rganishi uchun emas balki , oddiy bir

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ko'ngilochar mashg'ulot sifatida qaraladi. Umuman olganda, bolalar faol bo'lganda yaxshiroq o'rganishadi. Ba'zi o'yinlar juftlik yoki kichik guruhlarda o'ynaladi; boshqalar butun sinf bilan o'ynaydi. Biz bilamizki, o'yinlar ko'pincha qisqa isinish (warm up ) mashg'ulotlari sifatida yoki dars oxirida biroz vaqt qolganda qo'llaniladi. Keling, o'qituvchi sinfda qanday o'yinlardan foydalanishi mumkinligini ko'rib chiqaylik. Quyida sanab o'tilgan mashg'ulotlar 6-9 yoshdagi boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun tayyorlangan.

1. “Play find your partner” (O'ynang o'z sheringizni toping )

Maqsad: o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini oshirish. O'qituvchi sinfni 2 guruhga ajratadi. Birinchi guruh - "Yoz", ikkinchi guruh - "Qish". O'qituvchi bolalarga yoz va qish kartalarini tarqatadi va o'qituvchi bolalardan kartalariga ko'ra o'z sheriklarini topishni so'raydi. Yozgi kartochkalar: issiq, iliq, quyosh, daryoda suzish... Qish kartalari: qor, qo'lqop, sovuq, tuman.

2. “When I say touch..” ( Men tegining deganimda...)

Maqsad: o'quvchilarning tinglash ko'nikmalarini yaxshilash. O'qituvchi bolalardan ikki qator bo'lib turishini so'raydi . O'qituvchi mashg'ulot yo'riqnomasini tushuntiradi. Bolalar, men teginish desam, siz tanangizning qismlariga tegishingiz kerak . Keling, boshlaymiz. Men teging desam ...buruningizga teging, yuzingizga teging, chap oyog'ingizga teging.

3. “Is she a girl or a boy” ( U qizmi yoki o'g'il)

Maqsad: o'quvchilarning nutq qobiliyatini oshirish. O'qituvchi oldindan qiz va o'g'il bolalar tanasi uchun 2 ta tayyor kartani tayyorlaydi. O'qituvchi sinfni 2 guruhga ajratadi. O'qituvchi guruhlarga flesh-karta konvertlarini tarqatadi va mashg'ulotning yo'riqnomasini tushuntiradi. Iltimos, desam, konvertlarni ochishni va inson tanasining flesh-kartalarini chiqarishni boshlash kerak. Keyin ularni to'g'ri tartibda joylashtirasiz. Yakunda guruhlar "U qizmi yoki o'g'ilmi?" Qaysi guruh birinchi o'rinni egallasa, ular bu o'yinda g'olib bo'ladi.

4. “ Run and stick animals” (Yugurish va hayvonlarni yopishtirish)

O'qituvchi oldindan doskada ikkita plakat tayyorlaydi. O'qituvchi sinfni 2 ta

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

jamoaga ajratadi. O'qituvchi uy va yovvoyi hayvonlarning kartalarini tarqatadi. O'qituvchi mashg'ulot ko'rsatmalarini tushuntiradi: Mana ikkita plakat. Kartochkalaringizga qarang va uni afishaga yopishtirish uchun yugurib chiqing, iltimos, ularning to'g'ri joylarini toping, bu uy hayvonmi yoki yovvoyi hayvonmi. Qaysi guruh birinchi bo'lib tayyor bo'lsa, BINGO deyishingiz mumkin va bu o'yinda o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Xulosa qilib aytishim mumkinki, ingliz tili darslarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijodiy, faol, dunyoqarashini o'zgartirishga qodir shaxsni shakllantirishga yordam beradi. O'yinlarni bolalarning bilim darajasi yoki yoshiga nisbattan murakkablashtirib yoki soddalashtirib ham o'ynash mumkin . Yuqorida keltirib o'tilgan o'yinlarning maqsadi , aqliy salohiyatini oshirish , chaqqonlik , ziyraklik, xotirani mustahkamlash, yangi so'zlarni oson va tez eslab qolish va eng muhimi darsni mazmunli va qiziqarli o'tishidir.

### **Foydalilanigan adabiyotlar :**

1. Ersoz, A. (2000) Six Games for the EFL/ESL Classroom in The Internet TESL Journal , VOL . VI, No.6
2. Carrier, Michael and The Centre for British Teachers. (1980). Take 5. Games and activities for the Language Learner (2.d .ed)London: Nelson
3. Xakimova, M. A . “The role of game in teaching English in primary classes”
4. <https://moluch.ru/archive/235/54711/>
5. Zubaydova. N. N. “ How to teach vocabulary” , “ Vocabulary task”, “Learning English with phrases”